IKKI BUYUK NOSIR NIGOHIDA IQTISODIY MUNOSABATLAR: O‘ZBEK VA RUS ADABIYOTLARIDA IQTISODIY MAVZULAR

Ubaydullayev Sirojiddin Jamshid o‘g‘li
Talaba, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Menejment fakulteti, MO-12 guruhi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20061758

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qahhor va Anton Pavlovich Chexov asarlari asosida o‘zbek va rus adabiyotida iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolar tahlil qilinadi. Chexovning “Rotshild skripkasi” va Qahhorning “Bemor” hikoyalari orqali ikki xalq hayotidagi moddiy yetishmovchilik, ijtimoiy tengsizlik va insoniy qadriyatlar masalasi taqqoslanadi. Shuningdek, ushbu muammolarning bugungi kunda ham dolzarbligi va ularni o‘rganishning amaliy ahamiyati yoritiladi.
Kalit so‘zlar: iqtisodiy tahlil, qashshoqlik, zarar hisobi, tibbiy xizmat iqtisodi, xurofot, mehnat iqtisodi, o‘lim iqtisodi, qiyosiy adabiyot, “kichik odam” tipi, Abdulla Qahhor, Anton Chexov.

1. Kirish (Introduction)

Adabiyot ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi muhim manba sifatida insonning moddiy sharoit bilan ma’naviy dunyosi o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘p marotaba tasvirlagan. XIX asr oxiri - XX asr boshlari rus adabiyotida Anton Chexov, o‘zbek adabiyotida esa Abdulla Qahhor “kichik odam” mavzuiga murojaat qilib, qashshoqlik, xurofot, iqtisodiy hisob-kitobning insoniy munosabatlardagi halokatli ta’sirini realistik tarzda ko‘rsatgan. Ushbu tadqiqotda ikkala yozuvchining bir-biriga mavzu jihatdan yaqin bo‘lgan hikoyalari - “Bemor” va “Rotshild skripkasi” - iqtisodiy tahlil ob’yekti sifatida qaraladi.

Tadqiqotning maqsadi - har ikki asarda iqtisodiy omillar (kambag‘allik, zarar hisobi, xarajatlar, mehnat, tibbiy xizmatga kirish imkoniyati) qahramonlarning dunyoqarashi, oilaviy munosabatlari va hayotiy tanlovlariga qanday ta’sir ko‘rsatganini ochib berish; shuningdek, asarlarni qiyosiy tahlil qilish orqali o‘zbek va rus adabiyotidagi “iqtisodiy odam” tipologiyasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.

Adabiyotlar sharhi

Anton Pavlovich Chexovning «*Rotshild skripkasi*» hikoyasi 1894 yilda yozilgan. Hikoya 1893 yilning dekabr o‘rtalaridan 1894 yilning yanvar o‘rtalariga qadar yaratilgan bo‘lib, yozuvchi ijodining keyingi davriga mansubdir. Hikoya, umri davomida faqat hisob-kitob va foyda bilan yashagan tobutchi Yakovning hayotiga bo‘lgan nigohidir. Kech qolgan pushaymonlik va san’at (skripka) orqali insoniylik, kechirim va abadiylik haqidagi chuqur falsafiy mazmunni ochib beradi.[2]

Chexovning “Rotshild skripkasi” haqida rus adabiyotshunosligida juda ko‘p ishlar yozilgan. Jumladan, A.V. Kubasov (2010) bu hikoyaning narrativ tuzilishi -ya’ni voqeani kimning ko‘zi bilan ko‘rayotganimiz -juda murakkab ekanini ko‘rsatadi. Uning fikricha, Chexovning birgina gapida uch xil ong (Yakov, Rotshild va hikoyachi) to‘qnashadi. Masalan, hikoyaning birinchi jumlasidayoq “shaharcha kichkina edi, qishloqdan ham yomonroq” degan baho aslida Rotshildga tegishli -chunki u yerda to‘y bo‘lmasa, uning daromadi yo‘q. Yakov esa “keksalar kam o‘ladi, hatto achchiq” degan fikrda. Shunday qilib, Chexov o‘quvchini bir bosh qahramon emas, balki bir nechta qarashlar o‘rtasidagi ziddiyat bilan ishlaydi [5].

Yana bir muhim manba - 2009-yilda Cherepovetsda chiqqan “Chexovning ‘Rotshild skripkasi’” to‘plami. Unda Z.V. Lukicheva hikoya nomi haqida yozadi: “Skripka” (san’at) va “Rotshild” (boylik) bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar, ammo Chexov ularni birlashtirib, g‘arbiy goblin bronza aslida boy emas, balki psevdo-boy ekanini ko‘rsatadi. N.V. Volodina esa yahudiy stereotipi qanday buzilganini tahlil qiladi: Yakov “jind” deb haqoratlagan Rotshild aslida undan ko‘ra insoniyroq, sabrliroq [6].

Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi 1936-yilda yozib tugatilgan va nashr etilgan. Ushbu asar o'zbek adabiyotida 1930-yillardagi ijtimoiy muhit, qoloqlik va inson taqdirini realistik bo'yoqlarda ochib bergan eng sara hikoyalardan biri hisoblanadi.[1]

Abdulla Qahhor ijodiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ko‘p. Jumladan, Mingboyev I. (2023) qayd etishicha, yozuvchining bolalik yillari Farg‘ona vodiysida ko‘chib yurish bilan o‘tgan. Bu uning “kelgindi” bo‘lib qolish hissini kuchaytirgan va keyinchalik “Indamas”, “Bemor” kabi hikoyalariga zamir bo‘lgan. Muallif ta’kidlaydi: Abdulla Qahhor “qora xalqning ich-ichida yurib, haqiqiy ahvolni, avom xalq hayotini yaqindan o‘rgangan” [3].

Abdusalomova N. esa “Bemor” hikoyasini maxsus tahlil qilib, undagi iqtisodiy nochorlik va tibbiy xizmatga kirish imkoniyati yo‘qligini batafsil yoritadi. Uning fikricha, Sotiboldining xo‘jayini Abdug‘aniboy “bir ayolning hayotidan 25 so‘mlik pulni azizroq ko‘radi”. Shuningdek, tadqiqotchi xurofiy davolarning (tabib, baxshi, tovuq so‘yish) iqtisodiy jihatdan kambag‘allarni yanada qashshoqlashtirishini ko‘rsatadi [4].

2. Metodologiya

Tadqiqot sifatli adabiy tahlil (qualitative literary analysis) va qiyosiy usul asosida amalga oshirilgan. Asosiy material sifatida A. Qahhorning “Bemor” (to‘plam: “O‘tmishdan”, 1938) va A. Chexovning “Скрипка Ротшильда” (1897) asarlari tanlandi. Chexov hikoyasidagi parchalar o‘zbek tiliga muallif tomonidan adabiy tarjima qilindi.

Tahlil quyidagi iqtisodiy kategoriyalar bo‘yicha olib borildi:

- daromad va xarajatlar;
- qarz va jamg‘arma;
- mehnat va vaqt iqtisodi;
- tibbiy xizmat va xurofiy xarajatlar;
- o‘lim iqtisodi (dafn marosimi, tobut, meros);
- yo‘qotilgan imkoniyatlar (opportunity cost).

Har bir asardan ushbu kategoriyalarga oid parchalar ajratilib, ular mazmunan tahlil qilindi, so‘ng qiyosiy jadval asosida umumlashtiriladi.

3. Natija (Results)

3.1 “Bemor” asarida iqtisodiy munosabatlar tahlili:

3.1.1. Tibbiy xizmat va xurofiy xarajatlar

Sotiboldi xotinini kasallikdan qutqarish uchun avval “o‘qitadi”, tabibga boradi, baxshi o‘qitadi, bir xotin tol shoxi bilan savab, tovuq so‘yib “davo” qiladi. Muallif bu jarayonni quyidagicha izohlaydi:

“Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi”[1]

Shahardagi doktorxona esa Sotiboldi uchun imkonsiz, chunki uning tasavvurida:

“Doktorxona deganda Sotiboldining ko‘zi oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so‘mlik pul kelar edi”[1]

Abdusalomova N. ta’kidlashicha, “25 so‘m -bu o‘sha davrda oddiy xizmatkor yoki hunarmandning bir necha oylik daromadiga teng edi. Sotiboldi bunday pulni faqat tushida ko‘rishi mumkin” [4]. Hikoyani o‘qish orqali Abdusalomovaning fikri o‘z tasdiqini topadi,

chunki Sotiboldi savatchalarini sotib oladigan baqqoldan 20 tanga qarz oladi, 25 so‘m esa bundan 50 barobar ko‘p.

3.1.2. Mehnat va qarz

Xotini og‘irlashgach, Sotiboldi uydan tashqarida ishlay olmay qoladi va tirikchilik uchun savatcha to‘qishga majbur bo‘ladi. “Chilyosin” deb nomlangan muolaja uchun esa baqqoldan 20 tanga qarz oladi [1]. Bu muallifning o‘sha paytdagi mehnat iqtisodiyoti faqatgina inson qo‘l mehnatiga asoslanganini va qarz munosabatlari yaxshi rivojlanganini ko‘rsatadi. Mingboyev I. yozishicha, Abdulla Qahhor bolaligida otasining temirchi bo‘lib, qishloqma-qishloq ko‘chib yurishini kuzatgan [3]. Shu sababli uning hikoyalaridagi savatcha to‘qish, qarz olish kabi tafsilotlar bevosita hayotdan olingan.

3.1.3. Bolaning duosi va jamiyatning “bemorligi’

Qizchaning saxardagi duosi (“Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin”) onasining o‘limidan bexabar takrorlanadi [1], bu iqtisodiy tanglik va ma’naviy fojianing keskin uyg‘unligini ko‘rsatadi. Abdusalomova N. bu sahnani sharhlab, “to‘rt yashar qizchaning duosi -bu butun bir millatning nochorlikdan so‘nggi umidi” deb yozadi [4]. Qizcha onasining o‘limidan bexabar, ammo uning duosi davo topolmaydi -bu esa jamiyatdagi ma’naviy qashshoqlikning eng og‘ir ko‘rinishidir. Bu asarni o‘qigandan so‘ng “Bemor” nomi bilan muallif, huddi Fyodor Dostoyevskiy o‘z “Telba” asarini nomlashdagi fikri kabi, aslida bemor ayol timsolida jamiyatning *“kasalligini”* ochib beradi.

3.2. “Rotshild skripkasi” asarida iqtisodiy munosabatlar tahlili

3.2.1. “Zarar” tushunchasi hayot falsafasi sifatida

Yakov (Bronza) har bir ishni “zarar” nuqtai nazaridan baholaydi. Hikoyaning dastlabki qismida aytiladi:

“Yakov hech qachon yaxshi kayfiyatda bo‘lmasdi, chunki unga doim dahshatli zararlarga chidashga to‘g‘ri kelardi. Masalan, yakshanba va bayramlarda ishlash gunoh, dushanba - og‘ir kun, shunday qilib yiliga ikki yuzga yaqin kun qo‘l qovushtirib o‘tirishga majbur edi. Bu qanday zarar!” [2]

Politsiya nadziratelining o‘limini sabrsizlik bilan kutadi, chundan daromad kutgan:

“Politsiya nadzirateli ikki yil kasal bo‘lib, so‘ldi, Yakov uning o‘lishini sabrsizlik bilan kutdi, biroq nadziratel guberniya shahriga davolangani ketdi va u yerda o‘ldi. Mana sizga zarar, kamida o‘n so‘mlik, chunki tobutni qimmat, gazlamali qildirishi kerak edi” [2]

Kubasov ta’kidlaganidek, Yakovning “zarar” haqidagi fikrlari faqat uning o‘z ongi emas. Hikoyachi bu fikrlarni biroz masofadan, kinoya bilan beradi. Masalan, “Yakov hech qachon yaxshi kayfiyatda bo‘lmasdi” degan gap aslida hikoyachining o‘z pozitsiyasi, ammo keyingi “chunki doim zararlarga chidardi” -bu Yakovning o‘z mantiqi. Chexov ikki ovozni bir gapda uyg‘unlashtirib, o‘quvchiga qahramonning kamchiligini o‘zi ko‘rish imkonini beradi. Yakov o‘z hisob-kitoblarini mutlaq haqiqat deb biladi, ammo hikoyachi uning bu hisob-kitoblari qanchalik kulgili va fojiali ekanini bevosita aytmay, shunchaki yonma-yon qo‘yadi [5].

3.2.2. Xotinga iqtisodiy munosabat

Yakov xotini Marfaga nisbatan ham xuddi shunday sovuq hisob-kitob bilan qaraydi va bu munosabatni naqadar achinarli ekanligini muallif bir gap bilan bayon etadi:

“U xotiniga choy ichishni ham man qilgan, chunki xarajati katta, xotini faqat qaynagan suv ichardi” [2]

Kubasovning fikricha, Yakovning xotini Marfaga bo‘lgan munosabati narsaga bo‘lgan munosabat bilan barobar. Hikoya boshida Yakovning xonasidagi narsalar sanaladi: “unda u, Marfa, pechka, ikki kishilik karavot, tobutlar, ish dastgohi va butun ro‘zg‘or joylashgan edi”. Marfa ro‘zg‘or buyumlari qatorida, hatto pechkadan keyin tilga olinadi [5]. Bu

Chexovning nozik badiiy detali orqali qahramonning xotiniga qanchalik sovuq munosabatda ekani ko‘rsatiladi. Xotini o‘lim oldidan yuzi “rohat” ifoda bilan porlaganda, Yakov birinchi marta unga umr bo‘yi mehr ko‘rsatmaganini anglaydi [2] va o‘qiguvchi hikoyaning aynan ushbu joyidan boshlab Yakovni o‘zgarishini kutadi, biroq “bukrini go‘r to‘g‘rilaydi”.

3.2.3. Yo‘qotilgan imkoniyatlar va umrning “zarar”i

Qabristondan qaytgach, daryo bo‘yida o‘tirib, qilolmay qolgan ishlarini sanaydi:

“Agar hammasini birga - baliq tutishni, skripka chalishni, barkalarni haydashni, g‘ozlarni so‘yishni - qilsa edi, qanday kapital bo‘lardi! Ammo bularning hech biri tushida ham bo‘lmadi, hayot befoyda, hech qanday zavq-shavq bilan o‘tmadi, bekorga o‘tdi...” [2]

Ushbu joyda muallif iqtisodiyotdagi “muqobil xarajatlar”ni oddiy insonga tushunarli tilda bayon etadi.

3.2.4. San’at va iqtisodiy meros

Yakov o‘limi oldidan skripkasini Rotshildga vasiyat qiladi. Shaharda hamma so‘raydi: “*Rotshildga bunday yaxshi skripka qayerdan keldi?”* Rotshild endi skripkada Yakov chalgandek qayg‘uli ohanglarni ijro etadi [2], bu esa moddiy hisob-kitobdan ustun bo‘lgan ma’naviy merosni ifodalaydi. Lukicheva bu sahnani “skripka -Rotshildga qolgan meros” deb ataydi. Uning yozishicha, “shahardagilar hozir so‘raydi: bunday yaxshi skripka Rotshildga qayerdan keldi?” Bu savolning o‘zi hikoya nomining sirini ochadi: skripka endi Yakovniki emas, Rotshildniki [6]. Ammo skripka faqat asbob emas -u Yakovning ruhini, uning o‘zi ijro etgan qayg‘uli kuyini saqlaydi. Rotshild bu kuyni takrorlaganda, tinglovchilar yig‘laydi. Demak, moddiy narsa (skripka) ma’naviy boylikka aylanadi.

3.3. Qiyosiy natijalar jadvali

Toifa	“Bemor”	“Rotshild skripkasi”
Tibbiy xizmatga munosabat	Doktorxona - 25 so‘mlik pul, imkonsiz; xurofiy davolar - arzon, ammo samarasiz	Feldsher beparvo, tibbiyot ham “zarar” hisobiga kiradi
Xarajatlar va qarz	20 tanga qarz, “Chilyosin”, har bir tiyin hisob	Har bir kun, bayram, to‘y taklifi “zarar” sifatida baholanadi
Mehnat	Savatcha to‘qish	Tobutchilik, skripka chalish (qo‘shimcha daromad)
Oilaviy munosabatlar	Xotinga mehr kam, qizcha pashsha haydaydi	Xotinga umr bo‘yi sovuq, uning o‘limi tobutdan tushadigan daromad bilan o‘lchanadi
O‘lim iqtisodi	Qizcha duo takrorlaydi	Xotinning tobuti 2 so‘m 40 tiyin, o‘limning “foydasi” haqida sofizm
Yo‘qotilgan imkoniyatlar	Tilga olinmagan	Daryo, baliq, g‘oz, barakalar - hammasi yo‘qotilgan kapital
Yakun	Ma’naviy ziyon, fojia davom etadi	San’at merosi, Rotshild ijrosi orqali ma’naviy g‘alaba

4. Muhokama (Discussion)

4.1. Iqtisodiy tafakkur va inson qadri

Ikkala asarda ham qahramonlarning iqtisodiy tafakkuri ularning yaqinlariga, sog‘lig‘iga va hatto o‘limiga munosabatini shakllantirgan. Sotiboldi xotinini qutqarish uchun aralash davolarga

pul sarflaydi, ammo uning iqtisodiy dunyoqarashi “ingichka uziladi” degan maqol bilan ifodalangan: kambag‘al har doim yutqazadi. Yakov esa “zarar” tushunchasini hayot falsafasiga aylantirgan, hatto xotinining o‘limi ham tobutdan keladigan daromad hisobiga tushadi. Bu ikki asarning birida qahramonning imkoni yo‘qligi uchun yordam berolmasa, boshqasida o‘zi xohlamaganligi uchun.

Hikoyadagi yana bir personaj bo‘lgan Abdug‘aniboyga e’tibor bermasdasn iloj yo‘q. Abdusalomova N. bu borada keskin xulosa qiladi: “Abdug‘aniboyning Sotiboldiga yordam bermasligi -iqtisodiy emas, balki axloqiy tanlovdir. Uning imkoni bor, lekin rahmi yo‘q”[4]. Mingboyev I. esa Abdulla Qahhor ijodining asosini “haqiqatga xiyonat qilmaslik” deb belgilaydi [3]. Demak, yozuvchi kambag‘alning iqtisodiy nochorligini tasvirlash bilan cheklanmay, boyning ma’naviy kasalligini ham ochiq ko‘rsatadi. Bu jihat Chexovning Yakovidan farq qiladi: Yakov kamtar va pushaymon bo‘lsa, Abdug‘aniboy hech qachon o‘z xatosini tan olmaydi.

Ikkala qahramon ham o‘z yaqinlariga nisbatan iqtisodiy sovuqqonlik ko‘rsatgan, ammo farq shundaki, Yakov o‘lim oldidan pushaymon bo‘lib, skripka - san’at - orqali ma’naviy uyg‘onishga erishadi. Sotiboldi esa qizchasining takrorlagan duosida ifodalangan begunohlik va fojia ichida qoladi. Bu o‘zbek va rus adabiyotidagi, dastavval Nikolay Gogolning “Shinel” asarida uchragan, “kichik odam” tipidagi farqni ko‘rsatadi: Chexov qahramoni kech bo‘lsa-da ma’naviy yuksaladi, Qahhor qahramoni esa iqtisodiy va ma’rifiy qashshoqlik ichida qoladi.

4.2. Ijtimoiy tizim va iqtisodiy majburiyatlar

Har ikki hikoyada davlat va jamoat institutlari (doktorxona, feldsher, xo‘jayin, ruhoniy) kambag‘alga nisbatan befarq. Sotiboldi xo‘jayini Abdug‘aniboy “afsuslanadi” lekin amaliy yordam bermaydi. Chexovdagi feldsher “o‘lsa ham bo‘ladi” degan munosabatda. Bu ikkala jamiyatda ham kambag‘allarning ijtimoiy himoyasizligini va tibbiy xizmatning tovar sifatida qimmatligini ko‘rsatadi.

Chexov hikoyasini iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilishning o‘ziga xos qiyinligi bor. Kubasov ko‘rsatganidek, hikoyada kimning fikri ekanligini aniqlash har doim ham oson emas [5]. Masalan, “Yakov hech qachon yaxshi kayfiyatda bo‘lmasdi, chunki unga doim zararlarga chidashga to‘g‘ri kelardi” jumlasida “zarar” so‘zi Yakovning lug‘atiga kiradi, ammo “hech qachon yaxshi kayfiyatda bo‘lmasdi” degan umumlashtirish -bu hikoyachining qarashi. Shuning uchun biz *iqtisodiy kategoriyalarni* tahlil qilganimizda, ularning ba’zilari qahramonning o‘z dunyoqarashi, ba’zilari esa muallifning (yoki hikoyachining) istehzosidir.

Bu jihat Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasidan farq qiladi. Qahhorda hikoyachi deyarli har doim ochiq-oydin, u Sotiboldining ahvoliga rahmi keladi va o‘quvchini ham shu fikrga yetaklaydi. Chexov esa o‘quvchini noaniq qoldiradi: Yakovning hisob-kitoblari fojiali, ammo kulgili ham. Biz ham unga kulamiz, ham uning uchun qayg‘uramiz. Bu ikki xil uslub -to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy tanqid (Qahhor) va piching bilan aralashgan fojia (Chexov) - ikki jamiyatdagi adabiy an’analarning farqini ko‘rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor va Anton Pavlovich Chexov asarlari asosida Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa adabiyotida iqtisodiy va ijtimoiy muammolar o‘xshash bo‘lsa-da, ularning talqini turlicha ekanligi aniqlandi.

Adabiyotshunos olimlar (Kubasov, Lukicheva, Volodina, Chernov, Domanskiy) “Rotshild skripkasi”ni asosan narratologiya, psixologizm, intertekst nuqtai nazaridan tahlil qilganlar [5,6]. Ammo ularning hech biri hikoyani iqtisodiy kategoriyalar (“zarar hisobi”, “muqobil xarajatlar”, “o‘lim iqtisodi”) asosida o‘rganmagan. Mening tadqiqotim aynan shu bo‘shliqni to‘ldiradi va Chexovning qahramonidagi iqtisodiy tafakkurni birinchi marta tizimli ravishda tahlil qiladi. Qahhorning “Bemor”i bilan solishtirish esa shuni ko‘rsatadi: ikki xalq adabiyotida iqtisodiy

qashshoqlik tasviri o‘xshash bo‘lsa-da, uning badiiy ifoda usullari -birida realistik ishtiyoq, ikkinchisida istehzoli masofa - turlicha.

Har ikki hududda ham iqtisodiy muammolar mavjud, ammo ularni qabul qilish va yechishga bo‘lgan yondashuv farq qiladi. O‘zbek adabiyotida jamoaviylik va insoniylik ustun bo‘lsa, rus adabiyotida individual ruhiy holatlar ustunlik qiladi. Ushbu farqlar jamiyatlarning tarixiy va madaniy rivoji bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z aksini topmoqda. Abdulla Qahhorning “Bemor” asari qashshoqlik va xurofot iqtisodini, tibbiy xizmatga kirishdagi tengsizlikni, Anton Chexovning “Rotshild skripkasi” esa kapitalistik hisob-kitobning inson ruhiyatiga singib ketishini, “zarar” tushunchasining hayot falsafasiga aylanishini tasvirlaydi. Ikkala asar ham moddiy tanglik insoniy munosabatlarni qanday sovitishini, ammo san’at va insoniy qadr ma’naviy ustunlikni saqlab qolishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ular iqtisodiyot, adabiyot va ijtimoiy fanlar talabalari uchun insonning iqtisodiy xulq-atvorini tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor A. “Bemor”. - Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. - B. 45-52.
2. Chexov A. P. “Skripka Rotšilda” // Chexov A. P. To‘liq asarlar: 30 jildli. - M.: Nauka, 1977. - T. 9. - S. 324-337.
3. Mingboyev I. Abdulla Qahhor hikoyalarining eng muhim jihatlari // Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. -2023. -1-jild, 3-son. -B. 112-115. https://www.in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/11726/8377
4. Abdusalomova N. Abdulla Qahhorning “Bemor” asarida jamiyat muammosi // (to‘plam yoki jurnal nomi -ko‘rsatilmagan, shuning uchun mavjud linklar asosida). -Farg‘ona davlat universiteti. -B. 163-166. https://universalpublishings.com/index.php/itfttdm/article/download/452/859
5. Kubasov A.V. Semantika narrativnoy struktury rasskaza A.P. Chekhova “Skripka Rotshilda” // Filologicheskiy klass. – 2010. – № 24. – S. 68-73. https://cyberleninka.ru/article/n/semantika-narrativnoy-struktury-rasskaza-a-p-chehova-skripka-rotshilda/viewer
6. “Skripka Rotshilda” A.P. Chekhova: Sbornik statey / Redkol.: Domanskiy Yu.V., Yarko A.N., Volodina N.V., Chernov A.V. – Cherepovets: Cherepovetskiy gos. un-t, 2009. – 83 s. (Seriya “Zhivoye russkoye slovo”). https://cyberleninka.ru/article/n/2010-04-027-skripka-rotshilda-a-p-chehova-sb-st-redkol-domanskiy-yu-v-yarko-a-n-volodina-n-v-chernov-a-v-cherepovets-gou-vpo-cherepovetskiy-gos-un-t/viewer